



**O'ZBEK MILLIY ASKIYA SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA SAN'AT
DARG'ALARINING ROLI**

A.Kambarov

Farg'ona davlat universiteti

Professor, (DSc)

O.Tojimamatova

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbek milliy askiya san'atining rivojlanishida san'at darg'alarining roli o'rganiladi. Xususan, Qo'qonlik mashhur askiyachi Zokir Eshon va uning shogirdi Sa'di Maxsumning ijodiy faoliyatlari, ularning yaratgan sahna ko'rinishlari va komediyalar orqali askiya san'atining tarqalishi tahlil etiladi. Zokir Eshonning shaxsiy ijodi va shogirdlarining qo'llab-quvvatlashi bilan askiya san'atining xalq orasida mashhurligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Farg'ona vodiysida askiya san'atining shakllanishi va uning madaniy ahamiyati, shuningdek, san'at darg'alarining pedagogik va estetik ta'siri tahlil etiladi. Ushbu ilmiy ish, O'zbek milliy san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan san'at ustalarining ijtimoiy va madaniy roli haqida yangi bilimlarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek milliy askiya san'ati, Zokir Eshon, Sa'di Maxsum, askiya, san'at darg'alari, komediya, folklor, madaniyat, teatr, pedagogik ta'sir*

**ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО
НАЦИОНАЛЬНОГО АСКИЯ ИСКУССТВА**

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль художественных школ в развитии узбекского национального искусства аския. Особое внимание уделено творческой деятельности известного кулиса из Коканда — Зокира Эшона и его ученика Са'ди Махсума. Анализируются их сценические постановки и комедийные номера, через которые искусство аския распространилось и приобрело популярность. В статье также рассматривается, как с помощью творчества Зокира Эшона и его последователей аския получала признание среди народа. В заключение, рассматривается влияние художественных школ на культурное и педагогическое развитие, а также эстетическая ценность искусства аския в народной культуре.*



Ключевые слова: *узбекское национальное искусство аския, Зокир Эшон, Са'ди Махсум, аския, художественные школы, комедия, фольклор, культура, театр, педагогическое влияние.*

THE ROLE OF ART SCHOOLS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK NATIONAL ASKIYA ART

Annotation: *This article explores the role of artistic schools in the development of Uzbek national Askiya art. Special attention is given to the creative activities of the famous comedian from Kokand, Zokir Eshon, and his disciple Sa'di Maxsum. The article analyzes their stage performances and comedic acts, through which Askiya art spread and gained popularity. It also discusses how the works of Zokir Eshon and his followers earned recognition among the people. Finally, the article examines the cultural and pedagogical impact of artistic schools and the aesthetic value of Askiya art in the folk culture.*

Keywords: *Uzbek national Askiya art, Zokir Eshon, Sa'di Maxsum, Askiya, artistic schools, comedy, folklore, culture, theater, pedagogical influence.*

KIRISH

Ona diyorimiz tarixidan ma'lumki, Qo'qon shahri qadimdan qiziqchi va askiyachilar makoni bo'lib kelgan Qo'qonlik kulgi ustalarining otasi hisoblangan Zokir eshon to'g'risida og'eaki gaplar ko'pu, yozma ma'lumotlar juda kam. Bu etakchi qiziqchi va askiyachining asl ism-sharifi Rustam Mextar o'g'li bo'lib, muchali sigir bo'lgani uchun Zokirgov ham deyishgan. U 1824 yili shahardagi mayda kosib oilasida tavallud topgan. Yoshligidan hayotdagi qiziq-qiziq kulgili voqea va hodisalarni o'rganib, yuzdan ortiq imo-ishora hamda og'zaki, bir pardali ichakuzdi komediyalar yaratgan. Uni Qo'qon xoni saroyning bosh qiziqchisi etib olgani bois, u o'z atrofiga tengqur komik aktyorlarni to'plab "Mozor", "Zarkolar", "Xon", "Avliyo", "Sirkataroq azizlar", "Hoji kampir", "Nevara duosi", "Qalandarlar", "Dorbozlik", "Kelin tushdi", "Mardikor va nonvoy", "Attorlik" kabilarni sayribog' va Xudoyorxon saroyi tomoshagohparida namoyish etgan Zokirgoviing shogirdlari Qo'qon atrof hududlari hamda Marg'ilon, Farg'ona va Andijon shaharlaridan bo'lib, hafta sayin yig'ilishib, tomosha oldi mashqlarini o'tkazishardi.

Qiziqning tashqi qiyofasi yozuvchi Abdulla Qodiriy tomonidan shunday tasvirlanadi: "...Bordon" ichidan uzun bo'yli, qorasqolli, ustida malla to'n, simobi bo'z sallasining peshini bir qarich osiltirgan bir kishi chiqdi, tamkin, viqor bilan bittabitta yurib kelib, zina yonida xonga qarshi to'xtadi. Xondan tortib hammaga



tabassum tusi kirgan edi. Kishi, xonga qarshi turgan holda, sallasini tuzatdi, soqol-murtini siladi, to'nini qoqib, oldini o'radi, so'ngra xotirjam ruku'ga bordi. Birdan xon va raiyat kulib yubordilar. Bu kishi Xudoyorning eng yaxshi ko'rgan qizig'i Zokirgov edi"³⁶.

Zokirjon qiziqning "Eshon" va "Gov" laqabi bo'lgan. Birinchi laqabi unga o'z davrining insofsiz eshonlarni hajv qilgani uchun berilgan. "Gov" laqabining tarixi esa quyidagicha: 1871 yilda Xudoyorxon shahzoda O'rmonbekka uch oy xatna to'yi beradi. To'yga xonlikda tanilgan barcha sozanda, hofiz, nayrangboz, dorboz, raqqos, masxarabozlar jalb qilinadi. Zokirjon ham o'z to'dasi bilan bu katta tantanaga shaylanadi. Xon o'rdada ham xizmat qiluvchi bu to'pga alohida buyruq beradi: uch oy davomida har kun yangi tomosha ko'rsatish, bir ko'rsatilgan tanqid yoki taqlidni ikkinchi marta qaytarmaslik. Xonning xohishini bajarish engil emas edi. Zokir o'zining butun qobiliyati va aqlini ishga soladi. Hamkasblari bilan birga hayotiy hodisalar va konkret shaxslarning fe'l-atvori zaminida bir qator taqlid, fars va pantomimalar ijod qiladi. Bu ham etmaganday, masxarabozlarning o'yinlaridan xursand bo'lib ketgan Xudoyorxon Zokir eshonga to'yning bir kunlik xarajatini o'z ustiga olishni, poyga berishni "iltifot" qiladi. Bunday kutilmagan "sharaf" va "iltifotdan" qo'rqib ketgan bechora Zokirjon eshon xonning taklifini hazilga yo'yib, "Bolalarimning o'zi poyga", ya'ni bolalarim poygachiday oshu nonga tashlanib yurgan chog'da, men qandan qilib bir kunlik to'yni o'z ustimga ola olardim, demoqchi bo'lgan. Boshiga qo'ngan "baxt qushini" uchirgan "nonko'r" va "beadab" qiziqning betga choparligidan darg'azab bo'lib ketgan xon uni bisotida bor iflos so'zlar bilan so'kib, pirovardida "sen Zokir eshon emas, Zokir govsan" deb bir oz xumori yozilgan. Xon og'zidan salmoqdor bo'lib chiqqan "gov – ho'kiz" so'zi to'tiqush amaldorlar tomonidan takrorlanaverib bechora masxarabozga haqoratli laqab bo'lib yopishgan³⁷. Ammo shu narsa shubhasizki, mehnatkashlar uni hurmat bilan "Zokir eshon", "Zokir masxaraboz", "Zokir qiziq" deb atagan. Uning ikkinchi laqabi ko'proq ayonlar va kiborlar tomonidan ishlatilgan.

Zokir eshonning shogirdlari orasida Sa'di mahsum, Dehqonboy (yuzboshi) qiziq Shernazar o'g'li, Yusuf qiziq Shakarjonov, Mirzarahim quloq, Komil qori Qulijonov, Normat va uning o'g'li Po'lat qiziq, Aka Buxor, Berdiyoshumlar asosiy rollarni ijro etishardi. Shuningdek, Zokirgov olis chekka shahar va qishloqlarda ham qiziqchilik kechalari o'tkazib, to'y va ziyofat yig'inlarida odamlarni kuldirar, shu bilan birga

³⁶ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. –Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat nashriyoti. 2019. B-171

³⁷ Qarang: Yusufjon qiziqning Zokir eshon haqidagi xotiralari. Jalil Qodirov tomonidan yozib olingan. Inp. O'zMMSI fondi. –Toshkent: 1990.





xalq orasidagi iste'dodli qiziqchi va askiyachilarni tanlab, o'zining saroydagi guruhiga taklif etardi. U 1898 yili Qo'qon shahrida vafot etgan.

Quyida Zokir-gov yaratgan og'zaki teatr tomoshalarining og'izdan-og'izga ko'chib kelgan namunalarining ayrimlari bilan tanishasiz.

Nevara duosi

Sahnada eshak mingan Zokirgov paydo bo'ladi. U go'yo hovliqib, eshagidan tushib, ariq yoqasiga boradi. Suvda "Meni ushlanglar, voy-dod!" deb oqib kelayotgan bola (bola rovida pakana Mahkam)ni ariqdan tortib olib, uning oyog'ini osmonga qilib, silkitib, kiyimlarini echib, jim turgan eshagi ustiga yoyadi. Keyin belidan belbog'ini echib, bolaning yuz-ko'zlarini artib, uning oyoq-qo'lini uqalaydi; - Kimning o'g'lisiz, bo'tam? - so'raydi arang ko'zini ochgan boladan. - Mamarayim eshonning nevarasiman, Azimxo'ja qorining o'g'liman. - Buni qarang, omadim bor ekan, tabarruk zotlar zurriyoti ekansiz. Mana, kiyimlaringiz ham quridi. Marhamat, qilib kiyib oling! - U bolani kiyintirib bo'lib, peshanasidan o'pib, ro'baro'siga tiz cho'kib, iltijo qiladi: - Endi bo'tam, iltimos, tabarruk odamlar zurriyoti bo'lganingiz uchun meni bir duo qiling, shoyad duoningiz ijobatga o'tib, ishlarim yurishib ketsa. Men Qo'qonning eng taniqli nosfurushi Abdumansur mijg'ov bo'laman. Qani, bo'tam, boshlang. - Unday bo'lsa qo'lingizni duoga oching, - deydi bola. - Siz meni oqib ketayotganimda qutqarib olib, kiyimlarimni oftobga yoyib, quritdingiz. Iloyim, boshingizga mendek falokat tushganida Sizni ham Xudoyim quritsin, omin Ollohu akbar! Xayr, men ketdim! - Barakalla, bo'tam, xayr! Bola ketadi, nosfurush eshagiga minayotib, erga oyog'ini tirab, o'ylab qoladi; "Tavba, bu zing'archa qanaqa duo o'qidi o'zi! "Sizni Xudo quritsin"! - deydi-ya! Tabarruk zot bo'lmay ket-e! Omadim yurishish o'rniga teskarisiga qiya bo'ladiganga o'xshaydi, e voy, peshanam sho'r ekan!

Farg'ona vodiysida yashovchi insonlarining so'zga chechan, xozir javob, askiya va payrovga usta bo'lishganligi ularning hayot tarzi va ijtimoiy faoliyatlarida ko'rinib turgan. Eng avvalo, xonandalarning o'sha davrda ustozlari Yusufjon qiziq Shakarjonov bo'lgani va Farg'ona-Toshkent xonandayu-hofizlari zukko askiyachilik, ya'ni so'z o'yini (zakiylik) san'atidan xabardorligi oltin fondlarga qoldirgan ijrolarida va ustoz-shogird an'analarida ham yaqqol ko'rinib turadi.

Farg'ona vodiysidagi askiyachi va qiziqchilar markazlaridan biri – Marg'ilon hisoblangan. O'z davrida Sa'di mahsum (1809-1889) mazkur shaharda askiyasi va qiziqchilar etakchisi bo'lgan. Sa'di maxsum asli marg'ilonlik bo'lib, Zokir Eshon truppasidagi eng qobiliyatli va qiziqchilar an'alarini puxta bilgan san'atkor edi. Buning ustiga unda murabbiy bo'lish uchun zarur qunt va chidam, mehribonlik yaxshi shakllangan edi. Shu bois shogirdlar unga topshirilardi.





Sa'di maxsum kambag'al kosib oilasida dunyoga kelgan bo'lib, yoshlik chog'laridanoq qiziqchilikka haddan tashqari beriladi. Qo'qonga borib, Zokir eshon truppasida qatnasha boshlaydi. Bu truppadagi katta, kichik qiziqchilarning mashqlarini hamda ularning tomoshabinlar oldidagi ijrosini sinchiklab o'rganadi. Hatto, "Attorlik", "Bola o'qitish", "Bedana o'yini", "Kelin tushdi" kabi bir pardali komediyalarda bosh rollarni ijro etib, tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo'ladi.

Sa'di maxsum qiziqchilik sirlarini ipidan ignasigacha o'zlashtirib olgandan keyin esa ona shahri Marg'ilonga kelib, shogirdlari bilan birga tamoshalar ko'rsata boshlaydi. Shogirdlaridan Yusuf qiziq, Abduaziz qiziq, Oxunjon qiziqlarni mustaqil tomoshalar qo'ygungacha qadar Qo'qonga olib borib, bir necha bor tajriba orttirish maqsadida sahnaga olib chiqib, rollar ijro ettiradi. Keyin esa, Marg'ilonda Abduaziz qiziq bilan Yusuf qiziqlar ishtirokida eng avval "Objuvoz" komediyasi tomoshasini odamlarga ko'rsatib, kulgi ulashadi. U doimo tomoshalarni sahnalashtirishda ish boshi – rejissyor vazifasini bajaradi. Yusuf qiziq ko'pincha uni odamlarga "Mening birinchi ustozim", - deb tanishtirardi.

Sa'di maxsum shogirdiga birinchi galda hajvbop kishilarning holatlari, qiliqlarini kulgilik qilib ko'rsatish, qush va hayvon harakatlari, tovushlariga taqlid qilishni buyurgan. Shu maqsadda shogirdga kuzatuvchanlik, kulgili holat va harakatlarni ko'ra bilish, esta saqlab qolish, fikrlash, fantaziya qila olish va bo'rttirib gavdalanitira bilish qobiliyatini o'stirgan. Shogird taqlidga tayyor bo'lgandan keyin ayrim lirik hajviy o'yinlardan o'rgatgan. Muqallid va o'yinga, harakat va mimikaga o'rgatish Sa'di maxsum maktabining birinchi davrini tashkil qiladi. Ikkinchi davr shogirdni badiiy so'zda chechan va hozirjavob bo'lishga, kulgili hikoyalar to'qib aytishga, askiya o'rgatishdan boshlangan. Shogird ham harakatda, ham so'zda qoniqarli darajaga erishgach, komediya o'ynashga o'tgan.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida yashagan va ijod etgan askiyachilar, shuningdek, shu sohada fidoyilik bilan mehnat qilgan shoir, olimlarning, jumladan, Mehnat Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Yusufjon qiziq Shakarjonovning o'zbek milliy Askiya san'atiga qo'shgan xissasini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki mashhur "San'atkor o'z bilimi, tajribasi va mahoratini, hammadan ham xotirasida saqlanib qelayotgan butun bir an'anaviy san'at qomusini turli yo'llar bilan boshqalarga o'rgatish, singdirish va yozdirib qoldirish..." yo'li bilan Askiya san'atini saqlab qolishiga erishgan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodiriy, A. (2019). Mehrobdan chayon. Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat nashriyoti.
2. Qodirov, J. (1990). Zokir eshon haqidagi xotiralar. O'zMMSI fondi. Toshkent.
3. Yusufjon, Qiziq. (1990). Zokir eshon va uning san'ati. Inp. Toshkent.
4. Muhammad, D. (1991). Farg'ona vodiysida askiya san'ati. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
5. Shukur, A. (1983). Askiya san'ati va uning rivojlanish tarixi. Farg'ona: Farg'ona universiteti nashriyoti.
6. To'raev, N. (2000). O'zbek milliy teatr san'ati. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
7. Abdullaev, A. (2005). Farg'ona vodiysining san'at darg'alarida tarbiya. Marg'ilon: Marg'ilon nashriyoti.
8. Xo'jaev, Sh. (1995). Xalqning og'zaki teatr san'ati. Toshkent: Ilmiy nashr.
9. Mahmudov, S. (2010). O'zbek teatrining tarixiy rivoji. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
10. Fozilov, R. (1998). Askiya va uning ijtimoiy ahamiyati. Andijon: Andijon universiteti nashriyoti.